

PALVANOV O'ktam Bazarbayevich
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o'rganish
ICESCO kafedrasi dotsenti, PhD

MIRZARAXIMOVA Mohira Islomjonovna
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Islomshunoslik ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi

SHAYX MUHAMMAD SODIQ MUHAMMAD YUSUFNING ILMIY MEROSI TASNIFI

КЛАССИФИКАЦИЯ НАУЧНОГО НАСЛЕДИЯ ШЕЙХА МУХАММАДА СОДИКА МУХАММАДА ЮСУФА

CLASSIFICATION OF THE SCHOLARLY LEGACY OF SHAYKH MUHAMMAD ŠĀDIQ MUHAMMAD YŪSUF

Annotatsiya. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf Markaziy Osiyoda faoliyat yuritgan yirik ulamolaridan biri bo'lib, o'zining sermahsul ilmiy faoliyati bilan ilm ahli va xalq orasida birdek chuqur hurmat qozongan. Olim tafsir, hadis, fiqh, kalom, axloq-odob, tasavvuf, ijtimoiy kabi ko'plab sohalarga oid asarlari bilan islom ilmlari rivojiga va insoniy fazilatlarining keng yoyilishiga munosib hissa qo'shgan. U nafaqat mustaqil asarlar muallifi, balki ko'plab mashhur manbalarni o'zbek tiliga o'girgan qilgan tarjimon sifatida ham faoliyat yuritgan. Allomaning asarlari ilmiy asosga va qat'iy dalillash uslubiga ega. Shu bois, Shayxning ilmiy faoliyati bugungi kunda nafaqat dunyo ulamolari tomonidan e'tirof etilgan, balki ilmiy merosini keng kitobxonlar ommasi ham katta qiziqish hamda e'tibor bilan o'rganmoqdalar.

Kalit so'zlar: Muhammad Sodik Muhammad Yusuf, tafsir, kalom, hadis, fiqh, odob, "Tafsiri hilol", "Hadis va hayot".

Аннотация. Шейх Мухаммад Садик Мухаммад Юсуф — один из выдающихся учёных, вышедших из Узбекистана. Благодаря своей плодотворной научной деятельности он снискал глубокое уважение как среди учёных, так и среди простых людей. Учёный внёс значительный вклад в развитие исламских наук и распространение нравственных ценностей своими трудами, охватывающими такие

области, как тафсир, хадис, фикх, калам, этика, тасаввуф и социальные вопросы. Он был не только автором оригинальных произведений, но и активно занимался переводом многих известных источников на узбекский язык. Его труды отличаются строгой научной основой и чёткой аргументацией. Поэтому научное наследие шейха Мухаммада Садики сегодня признаётся не только мировым сообществом учёных, но и с большим интересом изучается широкой читательской аудиторией.

Ключевые слова: Шейх Мухаммад Садик Мухаммад Юсуф, тафсир, калам, хадис, фикх, этика, «Тафсир Хилал», «Хадисы и Жизнь»

Annotation. Shaykh Muhammad Šādiq Muhammad Yūsuf is one of the prominent scholars to have emerged from Uzbekistan. Through his prolific scholarly activity, he earned profound respect among both scholars and the general public. The scholar made a significant contribution to the development of Islamic sciences and the promotion of moral and ethical values through his works, which covered a wide range of fields, including tafsīr, ḥadīth, fiqh, kalām, adab (ethics), taṣawwuf, and social issues. He was not only the author of original works but also actively engaged in translating many renowned sources into the Uzbek language. A solid academic foundation and a rigorous method of argumentation characterize his writings. As a result, Shaykh Muhammad Šādiq's scholarly legacy is today recognized not only by scholars around the world but is also studied with great interest and attention by a broad readership.

Keywords: Shaykh Muhammad Šādiq Muhammad Yūsuf, tafsīr, kalām, ḥadīth, fiqh, adab, "Tafsir Khilal", "Hadiths and life"

KIRISH

Movarounnahr diyorida yetishib chiqqan olimlar dunyo tamadduni rivojiga o'zlarining ilmiy faoliyati va asarlari bilan salmoqli hissa qo'shib kelganlar. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf ham shular qatoridan o'ziga munosib o'rin olganligi keng jamoatchilik tomonidan e'tirof etiladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ushbu olim haqida shunday degan: "Ozining serqirra faoliyati hamda beqiyos ilmiy-ma'rifiy merosi bilan islom tafakkuri va madaniyatini ravnaq toptirish, muqaddas islom dinining ulug' insoniy g'oyalarini xalqiga yetkazish, mashhur ulamolarning bebaho asarlarini chuqur tadqiq etish, turli mamlakat va o'lkalarda keng targ'ib qilish borasidagi ko'p yillik samarali mehnati,

xalqaro miqyosda dinlararo muloqotni yo'lga qo'yish, millat va elatlar o'rtasidagi hamjihatlik va ahillikni mustahkamlash, jamiyat hayotida ijtimoiy ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashga qo'shgan ulkan hissasi, diniy va dunyoviy bilimlarni puxta egallagan yetuk mutaxassislarni tayyorlash, yosh avlodni ona vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash yo'lidagi alohida xizmatlari uchun O'rta Osiyo va Qozogiston musulmonlari diniy boshqarmasining sobiq raisi, muftiy, marhum Muhammad Sodik Muhammad Yusuf, "Oliy darajadagi Imom Buxoriy" ordeni bilan mukofotlansin" deya ta'kidlagan edi [2]. Olim o'z zamonasida islom olamining yetuk allomalaridan sanalgan.

ASOSIY QISM

Muhammad Sodik Muhammad Yusuf o'zbek xalqining mutafakkir ulamolari orasida o'ziga xos o'ringa ega bo'lib, u mustaqillikdan so'ng O'zbekiston va butun Markaziy Osiyoda islom ilmlarini tiklash va rivojlantirishda muhim hissa qo'shgan zamonaviy muhadis, faqih va mufasssirlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Olim Qur'on va sunnatga tayanib, ijtimoiy, fiqhiy, aqidaviy, ma'rifiy hamda zamonaviy masalalarni qamrab olgan o'nlab ilmiy va ommabop asarlar ta'lif etgan.

Ana shu asarlar ichida islom dinining asosiy ilmlari - tafsir, fiqh, kalom, hadis, tasavvuf, mantiq, islom tarixi, axloq va shu kabi sohalarini qamrab olgan ilmiy risolalar va mufasssal kitoblar alohida o'rin tutadi. Shuningdek, allomaning ijodiy merosi nafaqat mutaxassislar, balki keng jamoatchilik orasida ham katta qiziqish va ehtiyoj bilan o'rganilmoqda.

Shuni ta'kidlash lozimki, Muhammad Sodik Muhammad Yusuf qalamiga mansub asarlarni turli ilm sohalariga tasnif qilish mumkin. Quyida olimning asarlari islom ilmlari sohalariga ko'ra tasnifi taqdim etiladi.

Qur'on ilmlariga oid:

1. Tafsiri hilol [20]. Qur'oni karim tafsiriga bag'ishlangan asar bo'lib, 6 jilddan iborat. Muhammad Sodik Muhammad Yusuf Liviyada yashab turgan yillarida o'zining mashhur tafsir asari bo'lmish ushbu asarni to'liq yozib tugatgan.

2. Qur'oni karim va o'zbek tilidagi ma'nolar tarjimasi [17]. Bu asar Qur'oni karim tarjimasiga

bag'ishlangan asar hisoblanadi. Asar "Tafsiri hilol" ning qisqartirilgan shakli bo'lib, unda faqat oyatlarning matni va ma'nolarining o'zbek tilidagi tarjimalari berilgan.

3. Qur'on ilmlari [16]. Ushbu asar Qur'oni karim bilan bog'liq asosiy nazariy va amaliy ilmlarni yoritishga bag'ishlangan o'zbek tilidagi muhim manbalardan biridir. Ushbu kitobda Qur'onning nozil bo'lishi, jamlanishi, tartibi, uslubi, i'jiz jihatlar, tafsir va tarjima masalalari, sababun-nuzul, makkiy va madaniy oyatlar, qiroatlar kabi ko'plab mavzular tartibli va tushunarli tarzda izohlanadi.

Kalom ilmiga oid:

1. Sunniy aqidalar [19]. U olimning aqida ilmiga doir dastlabki asar bo'lib, bir necha bor nashr qilingan. Olim ushbu asarida ko'plab aqidaviy masalalarni yoritib bergan.

2. Aqiyadatut-Tahoviya sharhining talxiysi [1]. Bu asar Muhammad Anvar Badaxshoniyni "Talxis sharhi-l-aqidatut-Tahoviya" ("تلخيص شرح العقيدة الطحاوية") nomli kitobining Muhammad Sodik Muhammad Yusuf tomonidan qilingan o'zbek tilidagi tarjimasi hisoblanadi.

3. Aqidatut-Tahoviya sharhining talxiysi [3]. Ushbu asarda ahli sunna val jamoa aqidasi asoslarini oddiy, tushunarli tarzda bayon etgan. Shuning barobarida, adashgan oqimlar qarashlariga ilmiy raddiyalar berilgan. Kitobda aqida ilmining asosiy tushunchalari keng yoritiladi.

4. Iymon [11]. Ushbu asarda imonning lug'aviy va istilohiy ma'nolari, uning shartlari kabi ko'plab masalalar bayon etilgan. Asarda Qur'on oyatlari, sahih hadislar va salaf ulamolarining qarashlari asosida iymon tushunchasining mohiyati tushuntiriladi. Kitob keng omma, ayniqsa, e'tiqodiy bilimlarini mustahkamlashni istagan o'quvchilar uchun mo'ljallangan.

5. Hidoyat imomi - Imom Abu Mansur Moturidiy [8]. Mazkur asarda Moturidiy aqidaviy maktabining asoschisi bo'lgan Imom Abu Mansur Moturidiy hayoti, ilmiy faoliyati, aqidaviy qarashlari va kalom ilmidagi o'rni yoritiladi. Muhammad Sodik Muhammad Yusuf bu asar orqali moturidiylik ta'limotining asosiy tamoyillarini, uning ahli sunna val jamoa aqidasiidagi tutgan o'rnini ilmiy asosda bayon qiladi.

Usul al-fiqh ilmiga oid:

1. Usulul fiqh [22]. Mazkur asar fiqh ilmining asosiy manbalari, dalillari va ularni tushunish hamda talqin qilish kabi muhim masalalarni

qamrab olgan. Unda Qur'on, Sunnat, ijmo', qiyos kabi asosiy dalillar tahlil etilgan, shuningdek, hukm chiqarishda qo'llaniladigan ikkilamchi manbalar, qoidalar, istilohlar va metodologik tamoyillar izchil bayon qilingan.

Furu' al-fiqh ilmiga oid:

1. Kifoya [12]. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf "Kifoya" asarida "Biz "Muxtasari Viqoya" da kelgan masalalarni hozirgi kunimiz tili, uslubi va ruhida taqdim qilishga harakat qildik" degan. U ham o'zbek tilidagi sohaga doir muhim manbalardan biri sanaladi.

Ushbu kitob "Kifoya" deb nomlangan. Qadimgi ulamolar odatlariga ergashilganida kitobning to'liq ismi "Kifoya sharhi Muxtasari Viqoya" bo'ladi. Bu kitob uch jildidan iborat bo'lib, o'rta asrlarda Movarounnahr ulamolari orasida keng tarqalgan va madrasa ta'lim tizimida asosiy darsliklardan biri bo'lgan "Muxtasari Viqoya" asarining izohli tarjimasidir.

2. Zikr ahlidan so'rang [24]. Ushbu kitob 8 jildidan iborat bo'lib, fatvo uslubida yozilgan savol-javob shaklidagi ilmiy asar hisoblanadi. Asarda diniy, fiqhiy va aqidaviy masalalar bo'yicha keng doiradagi savollarga aniq va dalillarga tayangan holda javoblar berilgan. Asarda Qur'on oyatlari va hadisi shariflardan ham keng foydalanilgan.

Hadis ilmiga oid:

1. Mustalahul hadis [13]. Bu asar hadis ilmiga oid omillarni o'rganishga bag'ishlangan o'zbek tilidagi muhim manba hisoblanadi. Ushbu kitobda hadisning isnod va matn jihatidan tahlili, hadislarning tasnifi, ishonchlilik mezonlari, roviylarning adolati kabi asosiy mavzular batafsil bayon etilgan. Asar hadisshunoslik fanining nazariy asoslarini chuqur yoritib, hadislarni ilmiy mezonlar asosida baholash va tasniflash metodologiyasini shakllantirishga katta hissa qo'shadi. U tadqiqotchilar, talabalar va hadisshunos olimlar uchun zaruriy manba sifatida xizmat qiladi.

2. Hadis va hayot [7]. Alloma tomonidan tarjima va sharh qilingan "Hadis va hayot" asari hadis ilmi bo'yicha eng keng qamrovli asarlardan biri hisoblanadi. O'ttiz to'qqiz juzdan iborat bo'lgan bu asar dunyoga mashhur "al-Azhar" universiteti shayxlaridan bo'lmish Aliy Mansur Nosif qalamiga mansub "at-Toju-l-jome' li-l-usul fi ahadisi-r-rasul" nomli besh juzli katta kitobning tarjima va sharhidir [15:32]. Asarda hadislar faqat rivoyat sifatida emas, balki amaliy yo'riqnoma, hayotiy qo'llanma

sifatida taqdim etiladi. Masalan, ibodatlar, oila va jamiyat munosabatlari, savdo-sotiq, axloq, mehr-oqibat, adolat, jamoaviy birlik kabi mavzulardagi hadislar keng yoritilgan va ular zamonaviy hayot bilan bog'liq holda tushuntirilgan.

3. Odoblar xazinasi [14]. Bu asar olimning axloqiy-tarbiyaviy yo'nalishdagi eng mashhur kitoblaridan biri bo'lib, Imom Buxoriyning "al-Adab al-Mufrad" nomli hadis to'plami tarjimai va unga yozilgan sharhdir. Muallif ushbu asarda hadislarni oddiy xalq tushunadigan tilda, chuqur ilmiy asos bilan tarjima qilib, sharhlagan. Har bir hadisga berilgan sharhlar zamonaviy hayotiy misollar bilan boyitilgan bo'lib, bu kitob islom odob-axloq me'yorlarini amaliy jihatdan hayotga tadbiiq etishda muhim vosita hisoblanadi.

4. Oltin silsila [15]. Bu kitobda Imom Buxoriyning "Sahih" asaridagi hadislar tarjimai va sharhi berilgan bo'lib 8 jildidan iborat.

Tasavvuf va odob axloqqa oid:

1. Tasavvuf haqida tasavvur [21]. Ushbu asar tasavvuf ilmi va uning asosiy tamoyillari haqida umumiy va tizimli tasavvur berishga bag'ishlangan. Kitobda tasavvufning tarixiy rivojlanishi, uning lug'aviy va istilohiy manolari, asosiy tushunchalari, ruhiy tarbiya usullari yoritilgan. Muallif tasavvufiy ta'limotlarning mazmuni va amaliy ahamiyatini ilmiy jihatdan ochib berib, o'quvchilarga bu ilmdagi chuqur bilim va tushunchalarni yetkazishga intiladi. Asar tasavvufga kirish darajasidagi o'quvchilar va bu sohani chuqur o'rganmoqchi bo'lganlar uchun qimmatli manbadir.

2. Ruhiy tarbiya [25]. U 3 jildidan iborat bo'lib, birinchi jildi "Poklanish" deb nomlanadi. Unda inson qalbini axloqiy va ruhiy jihatdan poklash, nafs bilan kurashish, tavba, ixlos, taqvo kabi tushunchalarning mazmun-mohiyati va hayotiy ahamiyati keng yoritilgan. Ushbu asar 2008–2014 yillar davomida bir necha bor nashr qilingan hisoblanadi. Olim ushbu kitobida insonning ichki dunyosini boyitish, qalb tarbiyasi, nafsni poklash, axloqiy yetuklik, sabr-toqat, ixlos, tavba va boshqa ma'naviy-axloqiy jihatlar chuqur tahlil qilinadi.

3. Xislatli hikmatlar [23]. U Shayx ibn Atoulloh Sakandariyning "Hikamul-Atoiyya" nomli asarini Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf tomonidan o'zbek tiliga qilingan tarjima va sharhidir. Asar 5 jildidan iborat bo'lib, unda ibn Atoullohnin hikmatlari Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf tomonidan har tomonlama tahlil qilingan, o'zbek

tilida aniq, tushunarli va ilmiy asoslangan sharhlar bilan boyitilgan. Har bir hikmat alohida bob sifatida taqdim etilgan bo'lib, ularning zamiridagi ma'nolar Qur'on oyatlari, sahih hadislar, mashhur mutasavviflarning so'zlari va hayotiy misollar orqali ochib berilgan.

Tarixga oid:

1. Islom tarixi [10]. Asar 2 jildan iborat bo'lib, islom dini tarixini yoritib beruvchi o'zbek tilidagi muhim manbalardan biri hisoblanadi. Asarda Odam (a.s) yaratilishidan boshlab, Payg'ambar (s.a.v) davri, sahobalar zamoni, to'rt xalifa davri, Umaviyyalar, Abbosiy sulolalari va keyingi islom davlatlari tarixi ixcham va tizimli tarzda bayon etilgan. Asarda islom jamiyatining shakllanishi, siyosiy va ilmiy rivoji, tarixiy shaxslar va muhim voqealar umumiy tarzda yoritilgan.

2. Fiqhiy yo'nalishlar va kitoblar [6]. Olimning ushbu asarida islom tarixida shakllangan asosiy fiqhiy mazhablar haqida ilmiy ma'lumotlar berilgan. Har bir mazhabning asoschilari, uslubiy yondashuvlari, dalillarga tayanish mezonlari va tarixiy rivojlanish jarayoni mufassal yoritilgan. Shuningdek unda islom ta'limotini ilmiy asosda o'tganuvchi zamonaviy islom tashkilotlari haqida ham ma'lumotlar berilgan.

3. Samarqandning sara ulamolari [18]. U ikkinchi Sharq Renessansi davri islom ilmlarining yirik namoyandalari hisoblangan alloma Sa'duddin Taftazoniy, Sayyid Sharif Jurjoniy va Muhammad ibn Jazariy kabi olimlarning hayoti va ilmiy faoliyatiga bag'ishlangan. Unda mazkur mutafakkirlarning tarjimai holi, ilmiy safarlari, ustozlari, shogirdlari, asarlari, shuningdek, tafsir, hadis, fiqh, usul al-fiqh, aqida, mantiq, balog'at, nahv, sarf, tasavvuf, qiroat kabi islom ilmlariga qo'shgan ulkan hissalar mufassal yoritilgan. Kitobda ulamolarning asarlari tahlil qilinib, ularning ilmiy merosiga zamonaviy yondashuv bilan baho beriladi.

Ijtimoiy masalalarga oid:

1. Ijtimoiy odoblar [9]. Unda musulmon kishining jamiyatdagi odobi, muomala madaniyati va ijtimoiy munosabatlardagi axloqiy mezonlari Qur'oni karim va hadisi shariflar asosida keng yoritilgan.

2. Baxtiyor oila [4]. Ushbu kitob islom dinining oilaviy munosabatlarga oid tomonlarining huquq va majburiyatlarini keng va batafsil sharhi bo'lib, zamonaviy jamiyatda oila institutining

mustahkamligini ta'minlashga doir barcha masalalarni o'z ichiga oladi. Xususan unda saodatli oila qurish, er va xotinning huquqlari, burch va majburiyatlari, ota-onaga, qaynota-qaynonaga munosabat, kelin va kuyov tanlash, aqiqa, farzand tarbiyasi, silai rahm, taloq, idda va shu kabi ko'plab dolzarb mavzulardagi ta'limotlari orqali bugungi kunda qator muammolar muhokama qilinadi va oyatlar, hadislar hamda salafi solihlarning hayoti misolida musulmonning baxtli oilaviy hayot dasturi ko'rsatib beriladi.

3. Bozor va unga bog'liq masalalar [5]. Bu kitob kichik hajmga ega bo'lib, savdo-sotiqqa oid muhim masalalarni o'z ichiga qamrab oladi. Unda musulmon savdogar bilishi lozim bo'lgan masalalar bayon qilinadi. Shu bilan birga bu asar muhimligi sababidan yillar davomida qayta-qayta nashr etilmoqda. Olimning bu kabi ijtimoiy masalalarga oid yana ko'plab asarlari mavjud.

XULOSA

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning boy ilmiy merosi islom ilmlarining deyarli barcha sohalarini qamrab olgan bo'lib, ularning har biri o'zining mazmunan chuqurligi, uslubiy aniqligi va dolzarbligi bilan ajralib turadi. Masala maqsadidan kelib chiqib, olimning 44 ta asaridan 24 tasi 8ta fan sohasida tasnif etildi. Olim tafsir, aqida, fiqh, hadis, usul, axloq, tasavvuf, tarix, ijtimoiy hayot, oilaviy masalalar va tarjima sohalarida o'ziga xos yondashuv, izchil metodologiya va xalq uchun tushunarli bo'lgan bayon uslubida qimmatli asarlarni ommaga taqdim etgan. Allomaning aqidaga oid asarlarida an'anaviy sunniy maktab nuqtayi nazaridan imon asoslari tushuntirilib, zamonaviy oqim va buzg'unchi g'oyalarga qarshi ilmiy asoslangan raddiyalar keltirilgan. Fiqhiy va ijtimoiy mavzularga oid kitoblarida esa, jamiyat hayotidagi ayrim muammolarni bartaraf etishda islom ta'limotining o'rni, oilaviy muammolar yechimi, shaxsning vatan va ilm oldidagi burch va mas'uliyati keng tahlil etilgan. Shuningdek, tarjima va sharhlash ishlari orqali boshqa yirik ulamolarning asarlarini mintaqa xalqlariga yetkazish yo'lida katta xizmat qilgan. Olimning ushbu keng qamrovli va turli ilmiy merosi nafaqat diniy-ma'rifiy sohada, balki jamiyatning ma'naviy uyg'onishida ham beqiyos ahamiyat kasb etadi. Mazkur tasnifiy yondashuv orqali shuni anglash mumkinki, Muhammad Sodiq Muhammad

Yusufning ilm yo'lidagi mashaqqatli xizmati hozirgi va kelajak avlodlar uchun mustahkam ilmiy manba va o'rnak bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Aqidatut-Tahoviya sharhining talxiysi. Tarj: Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. – T.: Hilol-Nashr, 2021. – B. 3.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyundagi "Marhum Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufni "Oliy Darajali Imom Buxoriy" ordeni bilan mukofotlash to'g'risida"gi farmoni. // <https://president.uz/uz/lists/view/6444>. [Murojat sanasi: 28.05.2025].
3. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Aqoid ilmi va unga bog'liq masalalar. – T.: Hilol-Nashr, 2022. – 376 b.
4. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. – T.: Hilol-Nashr, 2022. – 512 b.
5. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Bozor va unga bog'liq masalalar. – T.: Hilol-Nashr, 2021. – 104 b.
6. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Fiqhiy yo'nalish va kitoblar. – T.: Hilol-Nashr, 2022. – 312 b.
7. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Hadis va Hayot. – T.: Hilol-Nashr, 2024. – XXXVII j.
8. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Hidoyat imomi - Imom Abu Mansur Moturidiy. – T.: Hilol-Nashr, 2019. – 128 b.
9. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Ijtimoiy odoblar. – T.: Hilol-Nashr, 2023. – 456 b.
10. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Islom tarixi. – T.: Hilol-Nashr, 2021. – II j.
11. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Iymon. – T.: Hilol-Nashr, 2022. – 368 b.
12. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Kifoya. – T.: Hilol-Nashr, 2020. – J. I. – 584 b.
13. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Mustalahul hadis. – T.: Hilol-Nashr, 2019. – 384 b.
14. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Odoblar xazinasi. – T.: Hilol-Nashr, 2023. – IV j.
15. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Oltin silsila. – T.: Hilol-Nashr, 2019. – VIII j.
16. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Qur'on ilmlari. – T.: Hilol-Nashr, 2024. – 504 b.
17. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Qur'oni karim va o'zbek tilidagi ma'nolar tarjimasi. – T.: Hilol-Nashr, 2022. – 640 b.
18. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Samarqandning sara ulamolari. – T.: Hilol-Nashr, 2019. – 112 b.
19. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Sunniy aqiydalar. – T.: Hilol-Nashr, 2021. – 544 b.
20. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol. – T.: Hilol-Nashr, 2007, 2023, 2024. – VI j.
21. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavvur. – T.: Hilol-Nashr, 2024. – 296 b.
22. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Usulul fiqh. – T.: Hilol-Nashr, 2021. – 592 b.
23. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Xislatli hikmatlar. – T.: Hilol-Nashr, 2017. – V j.
24. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Zikr ahlidan so'rang. – T.: Hilol-Nashr, 2021. – VIII j.
25. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Ruhiy tarbiya. – T.: Hilol-Nashr, 2023. – III j.